




**Bankni strategik rivojlantirish  
departamenti**

## **Jahon va moliya bozorlariga oid sharh**

**03 avgust, 2026 yil**

# SQB,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi ( 20 oktabr 2025 yildan 13 iyul 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



## SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,330% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 6,354% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,038% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarining birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 9,562% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va 9,600% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 9,679% gacha o'zgarib turdi.



## NBU evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,231% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,238% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,624% gacha o'zgarib turdi.



## IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,372% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 6,359% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-6,724% gacha o'zgarib turdi.




## AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 6,500% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 6,502% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,059% gacha o'zgarib turdi.

## SOFR va Euribor


### AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

#### SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,73% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,64% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko'rsatkich ko'tarilib — 3,65 darajasida qoldi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


#### Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,484% (3 oylik) va 2,706% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,723% (6 oylik) va 2,493% (3 oylik) ni tashkil etdi.


## O'zbekiston valyuta bozori

### O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 857,6 million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 251,4 million dollarga kamroq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 988 so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 11 960 so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya 0,07% ni tashkil etdi.

## Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




3.08.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Davrbank*da qayd etilgan – 11 990 so'm. Boshqa banklarda esa kurs 12 010 – 12 055 so'm atrofida o'zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs *Infinbank*da qayd etilgan – 11 960 so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs 11 955 – 11 900 so'm atrofida bo'lgan.

# Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


## USD-RUB dinamikasi



## RUB-YUAN dinamikasi



## EUR-USD dinamikasi



USD/RUB kursi dinamikasi: hafta davomida kursning o'sishi

Ko'rib chiqilgan davr mobaynida USD/RUB kursi o'sish dinamikasini namoyon etib, 78,3 rubldan 80,0 rublgacha ko'tarildi. Kursning eng yuqori qiymati 80,3 rublni (30.07.2026), eng past qiymati esa 78,3 rublni (27.07.2026) tashkil etdi.

Davrning so'nggi kunida mahalliy maksimal darajaga erishilgandan so'ng kursda kichik korreksiya kuzatildi. Kurs harakati valyuta bozorida talab va taklif muvozanatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Umuman olganda, tahlil qilingan davr yakunlariga ko'ra, AQSh dollari rublga nisbatan mustahkamlandi.



RUB/CNY kursi dinamikasi: rubl yuanga nisbatan mustahkamlandi

Ko'rib chiqilgan davr mobaynida RUB/CNY kursi mo'tadil o'sish dinamikasini namoyon etib, bir yuan uchun 11,1 rubldan 11,4 rublgacha oshdi. Kursning eng yuqori qiymati 11,4 rublni, eng past qiymati esa 11,1 rublni tashkil etdi.

Davr davomida kurs sezilarli tebranishlarsiz izchil mustahkamlanib bordi. Ushbu dinamika valyuta bozorida talab va taklif muvozanatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, tahlil qilingan davr yakunlariga ko'ra, rubl yuangaga nisbatan mustahkamlandi.



EUR/USD kursi davrni o'sish bilan yakunladi

Ko'rib chiqilgan davr mobaynida EUR/USD kursi mo'tadil o'sish dinamikasini namoyon etib, 1,1418 dan 1,1546 gacha ko'tarildi. Kursning eng yuqori qiymati 1,1546 ni (31.07.2026), eng past qiymati esa 1,1405 ni (28.07.2026) tashkil etdi.

Davr boshidagi pasayishdan so'ng kurs o'sish bosqichiga o'tdi va davrni eng yuqori darajada yakunladi. Ushbu dinamika valyuta bozorida talab va taklif muvozanatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, tahlil qilingan davr yakunlariga ko'ra, yevro AQSh dollariga nisbatan mustahkamlandi.

# Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil

## Oltin narxi davrni mo'tadil pasayish bilan yakunladi



Oltin narxlar dinamikasi  
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida)




Ko'rib chiqilgan davr mobaynida oltin bozorida kotirovkalarining turli yo'nalishdagi tebranishlari kuzatildi. Narx 27.07.2026 sanasida 4075,2 darajasidagi eng yuqori qiymatga erishganidan so'ng, 28.07.2026 sanasida 4027,1 darajasigacha pasaydi va keyinchalik qisman tiklandi.

Davr yakunida oltin narxi 4040,9 ni tashkil etdi, bu esa kuzatilayotgan davr boshidagi ko'rsatkichdan pastdir. Mazkur dinamika bozordagi talab va taklif muvozanatining hamda qimmatbaho metallar bozori ishtirokchilarining joriy kayfiyatidagi o'zgarishlarni aks ettirdi.

Umuman olganda, tahlil qilingan davr yakunlariga ko'ra, oltin kotirovkalari kichik pasayish bilan yakunlandi.

Brent nefti narxlar dinamikasi  
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



## Brent narxlar davr yakunida mustahkamlandi




Ko'rib chiqilgan davr mobaynida Brent markali neft narxi aniq yo'nalishli trend kuzatilmagan holda o'zgaruvchan (volatil) dinamikani namoyish etdi. Maksimal qiymat 2026-yil 29-iyulda bir barrel uchun 90,74 AQSh dollari, minimal qiymat esa 2026-yil 28-iyulda 84,09 AQSh dollarini tashkil etdi.

Keskin pasayishdan so'ng kotirovkalar tiklanib, davr yakunida bir barrel uchun 90,12 AQSh dollari darajasiga yetdi va davr boshidagi ko'rsatkichdan yuqori bo'ldi. Mazkur dinamika jahon neft bozorida talab va taklif muvozanatining o'zgarishi bilan izohlanishi mumkin.

Umuman olganda, Brent markali neft narxi qisqa muddatli korrektsiyadan so'ng ko'rib chiqilgan davrni o'sish bilan yakunladi.

TTF gaz narxlar dinamikasi  
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



## TTF gaz narxlar ijobiy dinamikani namoyish etdi



Ko'rib chiqilgan davr mobaynida TTF tabiiy gaz narxlar o'zgaruvchan (volatil) dinamikani namoyish etib, keyinchalik tiklanish bosqichiga o'tdi. Maksimal qiymat 2026-yil 29-iyulda 69,4, minimal qiymat esa 2026-yil 28-iyulda 64,9 ni tashkil etdi.

Davr boshidagi pasayishdan so'ng kotirovkalar o'sish bosqichiga o'tib, davr yakunida 68,5 darajasiga yetdi va kuzatilayotgan davr boshidagi ko'rsatkichdan yuqori bo'ldi. Mazkur dinamika gaz bozorida talab va taklif muvozanatining o'zgarishi bilan izohlanishi mumkin.

Umuman olganda, TTF gaz kotirovkalari qisqa muddatli korrektsiyadan so'ng ko'rib chiqilgan davrni mo'tadil o'sish bilan yakunladi.